



BUYRUQ | ПРИКАЗ

20 23 y. « 11 ». 05 № 286

**“Uzbekistan Airways” AJ xaridlar faoliyatini
takomillashtirish va xarid komissiyalarining
yangi tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida**

Xarid qilish tartib-taomillarini optimallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Quyidagi usullar bilan:
 - 1-ilovaga muvofiq, eng yaxshi takliflarni tanlash usuli bilan BHMning 3,5 ming barobarigacha bo‘lgan miqdordagi;
 - 2-ilovaga muvofiq, eng yaxshi takliflarni tanlash usuli bilan BHMning 3,5 ming barobaridan 25 ming barobarigacha va tender usuli bilan BHMning 25 ming barobaridan ortiq miqdordagi;
 - 3-ilovaga muvofiq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha elektron shaklda xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazmasdan, eng yaxshi takliflarni tanlash yo‘li bilan BHMning 3,5 ming barobaridan ortiq miqdordagi xaridlarni amalga oshirish uchun xarid komissiyalarining yangilangan tarkiblari tasdiqlansin.
2. Belgilansinki, ushbu buyruq xorijdagi “Uzbekistan Airways” AJ vakolatxonalari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlarga tatbiq etilmaydi.
3. Xaridlar departamenti har uchala xarid komissiyasining ishchi organi etib, belgilansin.
4. Tovarlar/ishlar/xizmatlarni xarid qilish uchun so‘rovnomani rasmiylashtirish tartibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
5. Elektron shaklda xarid tartib-taomillarini o‘tkazmasdan, eng yaxshi takliflarni tanlab olish yo‘li bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha BHMning 3,5 ming barobaridan ortiq miqdordagi tovarlar, xizmatlar va ishlarni xarid qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
6. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-sentabrdagi PQ-3953-sonli qarori bilan tasdiqlangan ro‘yxatga muvofiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridi amalga oshirilganda, quyidagilarga:

Xaridlar departamenti direktoriga - “Uzbekistan Airways” AJ Boshqaruvi raisining 2022-yil 29-noyabrdagi 780-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy shakllar bo‘yicha

BHMning 350 barobarigacha bo'lgan miqdorda, shuningdek shartnomalar loyihalari belgilangan tartibda Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens xizmati bilan kelishgandan so'ng;

Boshqaruv raisining ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinbosariga - Xaridlar departamenti direktorining bildirishnomasi asosida, bozorni o'rganish natijalari bo'yicha raqobat varaqasi ilova qilingan holda, BHMning 350 dan 3500 barobaridagi miqdordagi shartnomalarni xarid komissiyasi ko'rib chiqmasdan tuzish huquqi berilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-oktabrdagi PQ-412-son Farmonining 6-bandiga muvofiq, eng yaxshi takliflarni tanlash yo'li bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xaridlarni amalga oshirishda, Xarid komissiyasi ishchi organi "Uzbekistan Airways" AJ rasmiy veb-saytida takliflarni qabul qilish muddati tugashidan kamida besh ish kunidan oldin xarid qilish tartib-taomili boshlanganligi to'g'risida e'lon joylashtiradi. Avariyalarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan, aloqa, mexanizmlar, asboblari va boshqa uskunalar ishlamay qolganda, aviakompaniyaning to'liq ishlashiga ta'sir qiladigan va bozorda faqat bitta yetkazib beruvchi mavjud bo'lgan hollarda e'lon joylashtirish talab qilinmaydi.

8. AJ tarkibiy bo'linmalari Xaridlar departamenti va AJ Moliya direktori bilan oldindan kelishilgan holda tovarlar/ishlar/xizmatlar xaridi uchun rahbariyatga so'rovnomalarni kiritish tartibi belgilansin.

9. Ishlar va xizmatlarni bajarish uchun shartnomalar bo'yicha ishlarning haqiqiy hajmini tasdiqlash ushbu ishlar va xizmatlardan bevosita foydalanuvchi bo'lgan AJ tarkibiy bo'linmasi tomonidan amalga oshirilishi tartibi belgilansin.

10. "Uzbekistan Airways" AJning 2022-yil 22-iyundagi 209-sonli va 2023-yil 6-fevraldagi 80-sonli buyruqlari o'z kuchini yo'qotgan, deb hisoblansin.

11. Kadrlar o'zgarganda, komissiya a'zolarining vazifalari ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki ushbu funksiyalarni bajarish yuklangan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

12. "Uzbekistan Airways" AJ xarid komissiyasi raisi va a'zolari mazkur buyruqni rahbarlik va ijro uchun qabul qilsin.

13. Buyruq "Uzbekistan Airways" AJ Boshqaruvi raisi o'rinbosarlari, departament direktorlari, boshqarma, bo'lim, xizmat boshliqlariga yetkazilsin.

14. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Boshqaruv raisi birinchi o'rinbosari U.A. Xusanov zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv raisi

Sh.Sh. Xudaykulov

IMZOLANGAN:

Boshqaruv raisi birinchi o'rinbosari

U.A. Xusanov

Boshqaruv raisining moliyaviy masalalar bo'yicha o'rinbosari

A.A. Sattarov

Boshqaruv raisining tijorat va turizm bo'yicha o'rinbosari v.b.

Sh.Sh. Yadgarov

Boshqaruv raisi maslahatchisi

E.N. Kurbanova

Xavfsizlik bo'yicha boshqarma boshlig'i

Z.T. Nishonov

Yuridik departament direktori

5.05.23r.

D.R. Ruziyeva

Xaridlar departamenti direktori

N.K. Xodjamov

t/h:

Ish jildi	- 1
Moliya departamenti	- 1
Yuridik departament	- 1
Xaridlar departamenti	- 1
Xizmat departamenti	- 1
PBM	- 1
YXB	- 1
Protokol-vizalar bo'limi	- 1
Standartlar bo'limi	- 1
MMTXB	- 1
Strategik va innovatsion rivojlanish boshqarmasi	- 1
Innvestitsiya loyihalarini amalga oshirish boshqarmasi	- 1
ATB	- 1
Tashqi aloqalar va tariflar departamenti	- 1
Sotuvlar va marketing departamenti	- 1
«Uzbekistan Airways Sales» filiali	- 1
Aviatsiya xavfsizligi va rejim xizmati	- 1
Birinchi bo'lim	- 1
Parvoz xizmati departamenti	- 1
PLTD	- 1
Tahlil departamenti	- 1
O'zaro hisob-kitoblar departamenti	- 1
Parvozlar xavfsizligi boshqarmasi	- 1
IRKSRD	- 1
Jamoatchilik bilan aloqalar departamenti	- 1
Aksiyadorlar bilan korporativ aloqalar bo'limi	- 1
Yerdagi inshootlardan foydalanish va transport boshqarmasi	- 1
«O'quv-mashq markazi» MChJ	- 1
«Ketrin» MChJ	- 1
«Uzbekistan Airways Technics» MChJ	- 1
«Uzbekistan Helicopters» MChJ	- 1
Jami:	31

Ichrochi:

Xaridlar departamenti
rejalashtirish va monitoring bo'limi boshlig'i
J.S. Ikramov

“Uzbekistan Airways” AJ
Boshqaruvi raisining
2023-yil 11.05. dagi
286 -sonli buyrug‘iga
1-ilova

**BHMning 3,5 ming barobarigacha bo‘lgan miqdordagi eng yaxshi takliflarni
tanlash orqali tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olish uchun
XARID KOMISSIYASI TARKIBI**

Komissiya raisi:

Xaridlar departamenti direktori

N.K. Xodjamov

Komissiya a‘zolari:

Xizmat departamenti direktori

K.Sh. Zufarova

Jamoatchilik bilan aloqalar departamenti

R.R. Kuzmina

Moliya departamenti Iqtisodiy boshqarma boshlig‘i

X.S. Umarov

Xaridlar departamenti direktori o‘rinbosari

lavozim bo‘yicha

Komissiya kotibi:

TMB bo‘limi boshlig‘i

B.T. Abdullayev

**BHMning 3,5 mingdan 25 ming so‘m barobarigacha bo‘lgan miqdordagi va tender usulida BHMning 25 ming so‘mdan ortiq miqdordagi eng yaxshi takliflarni tanlash usuli bo‘yicha tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olish uchun
XARID KOMISSIYASI TARKIBI**

Komissiya raisi:

Boshqaruv raisining ishlab chiqarish bo‘yicha
birinchi o‘rinbosari

U.A. Xusanov

Komissiya a‘zolari:

Texnik direktor

U.M. Kiyasov

Boshqaruv raisining tijorat
va turizm bo‘yicha o‘rinbosari

Sh.Sh. Yadgarov

Moliya departamenti Iqtisodiy boshqarma boshlig‘i

X.S. Umarov

Xizmat departamenti direktori

K.Sh. Zufarova

Jamoatchilik bilan aloqalar departamenti

R.R. Kuzmina

Xaridlar departamenti direktori

N.K.Xodjamov

Komissiya kotibi:

Xaridlar departamenti direktori o‘rinbosari

lavozim bo‘yicha

**Eng yaxshi takliflarni tanlab olish usuli bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar
bo‘yicha tovarlar, ishlar va xizmatlarni elektron shaklda xarid qilish
tartib-taomillarini o‘tkazmasdan BHMning 3,5 ming barobaridan ortiq
miqdordagi xarid qilish uchun
XARID KOMISSIYASI TARKIBI**

Komissiya raisi:

Boshqaruv raisining ishlab chiqarish bo‘yicha
birinchi o‘rinbosari

U.A. Xusanov

Komissiya a‘zolari:

Texnik direktor
Boshqaruv raisining tijorat
va turizm bo‘yicha o‘rinbosari
Parvozlarni xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘i
Xaridlar departamenti direktori

U.M. Kiyasov

Sh.Sh. Yadgarov
F.I. Ibragimov
N.K. Xodjamov

Komissiya kotibi:

Xaridlar departamenti direktori o‘rinbosari

lavozim bo‘yicha

Tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish uchun so‘rovnoma rasmiylashtirish Tartibi

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Tartib tasdiqlangan yillik va choraklik Reja-jadvallarga muvofiq “Uzbekistan Airways” AJ tarkibiy bo‘linmalari (keyingi o‘rinlarda Buyurtmachi) tomonidan tovarlar, ishlar, xizmatlar xarid qilish uchun buyurtmalar rasmiylashtirish tartibini belgilaydi.

1.2. Tartib AJ Xaridlar departamenti tomonidan quyidagilar asosida ishlab chiqilgan:

- “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun;
- Hujjatlashtirilgan ma‘lumotni boshqarish bo‘yicha qo‘llanma;
- “Uzbekistan Airways” AJda davlat xaridlari to‘g‘risida Nizom;
- Davlat xaridlarini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar;

2. Tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilish uchun so‘rovnoma rasmiylashtirish

2.1. Tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq va mahsulot/ish/xizmatlarga ishlab chiqarish ehtiyoji yuzaga kelganda yoki aksiyadorlik jamiyatining istiqbolli rejalarini amalga oshirish jarayonida buyurtmachining manfaatdor bo‘linmalari:

- elektron hujjat aylanishi tizimi orqali xarid qilish to‘g‘risidagi so‘rovnomani tasdiqlash uchun Xaridlar va Moliya departamentlariga yuborishi hamda uni Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosarida tasdiqlatishi lozim;

- xarid qilish (tasdiqlangan standart/shakl bo‘yicha) uchun so‘rovnomaga majburiy ravishda tasdiqlangan texnik topshiriq (TT) ilova qilinishi kerak. Xarid tashabbuskori TT loyihasini Xaridlar departamenti bilan birgalikda ishlab chiqib, oldindan kelishib olgan holda, Boshqaruv raisi yoki uning birinchi o‘rinbosari tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlatishi lozim.

2.2. Tovarlar/ishlarni/xizmatlarni xarid qilish uchun so‘rovnoma shuningdek quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- o‘zgartirilishi mumkin bo‘lmagan majburiy ahamiyatini ko‘rsatgan holda xaridlar predmetining batafsil tavsifi;

- o‘lchov birligi;

- miqdori;

- yetkazib berishning haqiqatan shoshilinchligi (agar iloji bo‘lsa, ma‘lum vaqt/sana belgilanadi);

- so‘rovnomani tayyorlash va tasdiqlashda ishtirok etgan barcha AJ xodimlarining lavozimlari, ism-shariflari;

- Buyurtmachi - AJ tarkibiy bo‘linmasining ro‘yxatga olish raqami/sanasi (chiqish raqami/ sanasi).

2.3. Texnik topshiriq va xarid qilish uchun so‘rovnomaga qo‘yiladigan talablar:

- tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) qo‘yiladigan talablar o‘lchanadigan bo‘lishi va raqamli qiymatlarda va/yoki muqobil bo‘lmagan ko‘rsatkichlar (ha/yo‘q, mavjudligi/yo‘qligi, dan/gacha) ko‘rinishida ifodalanishi kerak, tegishli talablarni bir xilda ifodalash va tavsiflash mumkin bo‘lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olish hollari bundan mustasno.

- tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) qo'yiladigan talablar davlat xaridlari tartib-taomili ishtirokchilari sonini asossiz cheklanishiga olib kelmasligi kerak;
- tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) talablarni belgilashda amaldagi me'yoriy-texnik hujjatlarda nazarda tutilgan umum ma'lum (standart) ko'rsatkichlar, atamalar va qisqartmalardan foydalanish kerak, normativ-texnik tartib mavjud bo'lmagan va/yoki ularga nisbatan nostandart ko'rsatkichlardan foydalanish keng tarqalgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib olish hollari bundan mustasno;
- xarid qilingan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga), qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan muomalada bo'lish xususiyatlariga va (yoki) xavfsizlik talablari (shu jumladan iste'mol, sanoat, ekologik) amaldagi xalqaro me'yorlarga muvofiq belgilanishi kerak;
- davlat xaridlari ob'ektining tavsifiga, agar davlat xaridlari xususiyatlarini tavsiflashning boshqa yetarli darajada aniq usuli bo'lmasa, muayyan tovar belgisi yoki nomi, patenti, tuzilishi yoki modeli, aniq kelib chiqishi yoki ishlab chiqaruvchi bo'yicha talablar yoki havolalarni o'z ichiga olmasligi lozim, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) boshqa ishlab chiqaruvchining ekvivalent tovarlari (ishlari, xizmatlari) bilan almashtirish imkoniyati to'g'risidagi eslatmani kiritish sharti bilan.

Agar tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) talablarda tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, patentlar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar kelib chiqqan joyning nomi yoki ishlab chiqaruvchining nomi bo'lsa, ularning ko'rsatilishi asosligini, shu jumladan tender hujjatlarining texnik qismida yoki texnik topshiriqda tovarlar (ishlar, xizmatlar) ekvivalentini yetkazib berish imkoniyati mavjudligini ochib (tushuntirib) beruvchi qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etilishi kerak.

3. Yakuniy qoidalar

3.1. Tartib xaridlar tizimining umumiy boshqaruv hujjati bo'lib, uning talablari aviakompaniyaning barcha bo'linmalari, rahbarlari va mutaxassislari tomonidan belgilangan huquq va majburiyatlari, javobgarligiga muvofiq qo'llash uchun majburiydir.

3.2. Xaridlar departamenti ushbu tartib talablarining bajarilishi ustidan tashkiliy nazoratni amalga oshiradi.

“Uzbekistan Airways” AJ
Boshqaruvi raisining
2023-yil “11” – 05 dagi
286-sonli buyrug‘iga
5-ilova

**Xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazmasdan elektron shaklda eng yaxshi takliflarni
tanlab olish yo‘li bilan tovarlar, xizmatlar va ishlarni 3,5 ming bazaviy hisoblash
miqdoridan ortiqcha xarid qilish tartibi to‘g‘risida**

NIZOM

1-bob. UMUMIY QOIDALAR:

1. Ushbu tartib “Uzbekistan Airways” AJ (keyingi o‘rinlarda – aviakompaniya) tomonidan xarid tartib-taomillarini elektron shaklda o‘tkazmasdan eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali bitta shartnoma bo‘yicha narxi **3 500 bazaviy hisoblash miqdoridan** ortiq tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridlarini amalga oshirishda qo‘llanadi.

Ushbu tartib talablari aviakompaniyaning xorijiy vakolatxonalari xaridlariga taalluqli emas.

2. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-oktyabrdagi “Respublikada mahalliy aviaqatnovlarni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Quyidagilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalarni tuzishda eng yaxshi takliflarni tanlab olishni o‘tkazish uchun asos hisoblanadi:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari; va

b) Yagona aksiyador;

Kuzatuv kengashi raisi tasdiqlagan aviakompaniya Kuzatuv kengashi;

Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlangan aviakompaniya Boshqaruvi **qarori; yoki**

aviakompaniya Boshqaruvi raisi yoki uning o‘rni bosuvchi shaxsning ruxsati bilan xarid tashabbuskori bo‘lgan departament, boshqarma, bo‘lim va xizmat rahbarining **bildirishnomasi;**

4. Aviakompaniya Boshqaruvi raisining buyrug‘i bilan tuzilgan Xaridlar komissiyasi ishchi organi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqib, tuzilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalarning qonuniyligi, shaffofligi, xolisligi va maqsadga muvofiqqligini baholagandan so‘ng qaror qabul qiluvchi organ hisoblanadi.

5. “Uzbekistan Airways” AJning yillik xarid rejasida ko‘rsatilmagan xaridlar bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish zarurati tug‘ilgan taqdirda, aviakompaniyaning manfaatdor tarkibiy bo‘linmasi xaridlarni amalga oshirish zarurligini asoslagan va yetkazib berish muddatini ko‘rsatgan holda Boshqaruv raisiga bildirishnoma yuboradi hamda ijobiy qarorni olgandan so‘ng, ishchi organga xarid qilish uchun ariza beradi.

2-bob. Ishchi organ vazifalari

6. Xaridlar departamenti Xaridlar komissiyalarining ishchi organi hisoblanadi.

7. Ushbu Nizomning 1-bandida ko'rsatilgan xaridlarni amalga oshirishda ishchi organ:

xarid qilinayotgan tovarlar, ishlar va xizmatlarning to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi va to'plangan hujjatlarni tegishli xarid komissiyasi ko'rib chiqishi uchun tayyorlaydi;

bozorda zarur tovarlar, ishlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilari va yetkazib beruvchilarining mavjudligini o'rganadi.

tovarlar, ishlar va xizmatlar narxlari, sifat ko'rsatkichlari, yetkazib berish shartlari, kafolat muddatlarini tahlil qiladi;

aviakompaniyaning xarid qilish tashabbuskori bo'lgan manfaatdor bo'linmasi bilan birgalikda xarid qilinadigan tovarlar, ishlar, xizmatlarga sifatli texnik topshiriq va talablarni ishlab chiqadi;

xarid qilish uchun nazarda tutilgan tovarlar, ishlar va xizmatlarni yetkazib berish va to'lash shartlarini ko'rib chiqadi;

tijorat takliflarini to'playdi va potentsial yetkazib beruvchilarni va taqdim etilgan tijorat takliflari bo'yicha tovarlar, ishlar va xizmatlarning sifatini tahlil qiladi.

tijorat takliflarining qiyosiy jadvalini tayyorlaydi va Xaridlar komissiyasiga taqdim etadi;

shartnoma tuzilgan kundan boshlab uch ish kuni ichida maxsus axborot portalida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish to'g'risidagi ma'lumotni joylashtiradi.

Bunda, yetkazib beruvchining ushbu sohadagi tajribasi, soliq va boshqa to'lovlar bo'yicha qarzdorligining mavjudligi va boshqa ko'rsatkichlarga alohida e'tibor beradi.

3-bob. Xaridlar komissiyasi ishi tartibi

8. Xaridlar komissiyasi tarkibi 5ta a'zo va ovoz berish huquqsiz majlisda ishtirok etadigan va bayonnoma tuzadigan kotibdan iborat. Xaridlar komissiyasining tezkor faoliyatini Ishchi organ tashkil qiladi.

10. Xaridlar komissiyalari ishining asosiy maqsadi xarid qilish tartibi ishtirokchilarining buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha takliflarini xolis baholash va tartibga solish, shuningdek to'g'ridan-to'g'ri xaridlarni amalga oshirishda yetkazib beruvchini (shartnoma tuzilishi kerak bo'lgan tijorat taklifini) tanlash hisoblanadi.

11. Xaridlar komissiyasiga xaridlar komissiyasining raisi rahbarlik qiladi, u xarid komissiyasining majlislarini chaqiradi va ularga rahbarlik qiladi, ovoz berishni e'lon qiladi va xarid komissiyasining qarorlarini, shuningdek xarid komissiyasi majlislari bayonnomalarini imzolaydi.

12. Xaridlar komissiyasining har bir a'zosi ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki ovoz berishdan bosh tortishi mumkin. Xarid komissiyasi raisi ovoz berishda qatnashishdan bosh tortishga haqli emas.

13. Xaridlar komissiyalarining majlislari Xarid komissiyasi a'zolari ishtirokida ochiq shaklda o'tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar videokonferentsiyalar (telekonferentsiyalar va boshqalar) shaklida o'tkazilishi mumkin.

14. Xaridlar komissiyalari a'zolari axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan ovoz berish huquqiga ega.

15. Xaridlar komissiyalari xarid qilish predmetidan kelib chiqib, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlar va mutaxassislarni jalb qilishi mumkin.

16. Xaridlar komissiyasining qarori Xaridlar komissiyasi a'zolarining umumiy sonidan ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, Xaridlar komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

17. Ushbu komissiya a'zosining affillanganligi tegishli masala bo'yicha qaror qabul qilinishidan oldin Xaridlar komissiyasiga ma'lum bo'lgan bo'lsa, va u o'z nomzodiga e'tiroz bildirmagan bo'lsa, bunday a'zoning ushbu masala bo'yicha ovoz berishiga yo'l qo'yilmaydi.

18. Xaridlar komissiyasi bilan bog'liq masala bo'yicha ovoz bergan ushbu komissiya a'zosining affillanganligi qaror qabul qilingandan so'ng ma'lum bo'lgan bo'lsa, bunday a'zoning ovozi ushbu masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

19. Xaridlar komissiyasining faoliyati uning 4tadan kam bo'lmagan a'zolari, shuningdek Xaridlar komissiyasining raisi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

20. Ishchi organ tomonidan zarur hujjatlar to'liq to'plami taqdim etilganidan so'ng, xarid komissiyalari yig'ilishadi va tegishli qaror qabul qilishadi.

21. Xaridlar komissiyasi majlisining yakunida kotib tomonidan komissiya a'zolari imzolaydigan va komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma rasmiylashtiriladi.

22. G'olib to'g'risidagi bayonnomada:

tijorat takliflarini ko'rib chiqish va baholash sanasi va vaqti;

xaridlar komissiyasining ishtirok etuvchi a'zolari tarkibi;

takliflari ko'rib chiqilgan tanlov ishtirokchilari;

takliflari rad etilgan tanlov ishtirokchilari, rad etilishining aniq sabablari ko'rsatilgan holda;

tanlov g'olibi bo'yicha qabul qilingan qaror;

tanlov g'olibining nomi (yuridik shaxs uchun), familiyasi, ismi, otasining ismi (jismoniy shaxs uchun), joylashgan joyi (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi zarur.

Komissiya raisi tomonidan tasdiqlangan bayonnoma shartnoma tuzish uchun ishchi organga yuboriladi. Ishchi organ shartnoma tuzilishini ta'minlaydi va shartnoma ijrosini nazorat qiladi.

23. Xaridlar komissiyasi majlislari bayonnomalarining asl nusxalari tegishli ishchi organning ish jildlari nomenklaturasining alohida ish jildida markazlashtirilgan holda yig'iladi va saqlanadi.

24. Xaridlar komissiyasining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari aviakompaniya va eng yaxshi takliflarni tanlash asosida amalga oshiriladigan xaridlar ishtirokchilari tomonidan bajarilishi majburiydir.

4-bob. Tijorat takliflarini taqdim etish tartibi

25. Eng yaxshi takliflar tanlovida quyidagi mezonlarga javob beradigan ishtirokchilar ishtirok etishlari mumkin:

shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar va boshqa resurslarga ega;

shartnoma tuzish huquqiga ega;

solliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;

ularga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining yo'qligi;

Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda u haqida ma'lumot yo'qligi.

26. Eng yaxshi takliflarni tanlash tartib-taomilini boshlash uchun xarid tashabbuskori ishchi organga quyidagi hujjatlarni topshiradi:

eng yaxshi takliflarni tanlash orqali ushbu tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish uchun asos ko'rsatilgan bildirishnoma;

belgilangan tartibda tasdiqlangan texnik topshiriq.

Shu bilan birga, texnik topshiriq uni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda Xaridlar departamenti bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

27. Ishchi organ ushbu Tartibning 25-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni qabul qilib olgandan so'ng tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilarga tasdiqlangan texnik topshiriq va tijorat takliflarini taqdim etish muddati ko'rsatilgan holda rasmiy so'rovnoma, shuningdek, tijorat taklifini ko'rib chiqish uchun barcha zarur qo'shimcha hujjatlar ro'yxatini yuboradi.

28. Eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha ishtirokchilarning tijorat takliflari tijorat takliflarini taqdim etish so'rovida ko'rsatilgan muddatdan oldin quyidagi manzilga elektron pochta orqali yuboriladi:

procurement@uzairways.com - xaridlar komissiyasi tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar uchun.

Shu bilan birga, xaridlar komissiyasining ishchi organi takliflarni qabul qilish muddati tugagunga qadar kamida besh ish kunigacha "Uzbekistan Airways" AJ rasmiy veb-saytida xarid qilish tartib-taomillarini boshlash to'g'risida e'lon joylashtirish majburiyatini oladi.

30. Tanlov ishtirokchisi takliflarni taqdim etish muddati tugagunga qadar taqdim etilgan taklifni qaytarib olish yoki unga o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

31. procurement@uzairways.com pochta manziliga ishchi organ hamda Korruptsiyaga qarshi kurashish va komplayens xizmati kirish huquqiga ega.

Bunda ushbu elektron pochta manziliga kelgan xabarlar tasodifiy yoki qasddan o'chirishdan himoyalangan bo'lishi zarur.

32. Agar takliflarni taqdim etish muddati tugaganidan so'ng, faqat bitta taklif kelib tushgan bo'lsa, shartnoma tuzish yoki muddatini uzaytirish to'g'risidagi qaror Xaridlar komissiyasi tomonidan qabul qilinadi.

5-bob. Tijorat takliflarini ko'rib chiqish tartibi

33. Tijorat takliflarini taqdim etish muddati tugagandan so'ng, Ishchi organ xarid komissiyasiga ko'rib chiqilishi uchun besh ish kuni ichida hujjatlar to'plamini tayyorlaydi.

34. Kelib tushgan tijorat takliflarini ko'rib chiqish uchun Ishchi organ Xaridlar komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:

tovarlar, ishlar va xizmatlar bozorini o'rganish natijalari to'g'risidagi hisobot (ijrochi tomonidan imzolangan);

1-ilovadagi namunaga muvofiq, xarid qilinadigan tovarlar, ishlar va xizmatlarga qo'yiladigan sifat va texnik talablarni aks ettiruvchi tasdiqlangan texnik topshiriq;

mavjud yetkazib beruvchilardan olingan kamida 3 ta tijorat takliflarining asl nusxalari;

3-ilovaga muvofiq, tijorat takliflarining qiyosiy jadvali (raqobat varaqasi);

tijorat takliflari so'rovnomasi nusxasi;

tijorat taklifini taqdim etgan har bir yetkazib beruvchi (mahalliy yetkazib beruvchilar) haqida stat.uz saytidan olingan ma'lumotlar.

35. Xaridlar komissiyasi taqdim etilgan takliflarni ushbu Nizomda belgilangan tartibda uch kun muddatda ko'rib chiqishi va quyidagi qarorlardan birini qabul qilishi shart:

shartnomani bajarish uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tanlov g'olibini va zaxira ijrochisini belgilash; yoki

eng yaxshi takliflar tanlovi o'tkazilmadi, deb tan olish.

36. Agar taklifni taqdim etgan ishtirokchi qonun hujjatlarida va ushbu Nizomda belgilangan talablarga javob bermasa, yoki ishtirokchining taklifi ishchi organning so'rovida ko'rsatilgan talablarga javob bermasa, xarid komissiyasi taklifni rad etadi.

37. Raqobat varaqasida ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarish uchun eng yaxshi shartlarni taklif etgan ishtirokchi tanlov g'olibi, deb tan olinadi.

38. Shartnoma tanlov ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida tuziladi, u bilan shartnoma belgilangan tartibda g'olib e'lon qilingan kundan boshlab 5 ish kunidan kechiktirilmay tuziladi.

39. Agar tanlov g'olibi shartnoma tuzishdan bosh tortsa, shartnoma tuzish huquqi zaxira ijrochisiga o'tadi.

Shu bilan birga, zaxira ijrochisi o'zi taklif qilgan narxda shartnoma tuzishi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin.

40. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash natijalari bayonnomada qayd etiladi va xaridlar komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolanadi. Bayonnomadan ko'chirma u imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlari axborot portalida (keyingi o'rinlarda – portal) e'lon qilinadi.

41. Tanlov yakunlari to'g'risidagi axborot ishchi organ tomonidan portalida (keyingi o'rinlarda e'lon qilinadi va Xaridlar departamenti tomonidan aviakompaniya bilan tuzilgan shartnomalar reyestriga kiritiladi.

42. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish haqidagi ma'lumotlar portalda joylashtirilmagan taqdirda, ushbu shartnomalar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmaydi.

6-bob. Shartnomalarning bajarilishini monitoring qilish

43. Tuzilgan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish xarid tashabbuskori va ishchi organ tomonidan birgalikda amalga oshiriladi.

44. Shartnomalarning bajarilishini monitoring qilish shartnoma majburiyatlari to'liq va o'z vaqtida bajarilgunga qadar amalga oshiriladi.

7-bob. Xaridlar komissiyasi a'zolari va ishchi organlarning javobgarligi

45. Xaridlar komissiyasi a'zolari to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar ijrochisi tanlovining davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari va ushbu Nizom talablariga muvofiqligi, ular qabul qilayotgan qarorlarning asosiligi, shaffofligi va xolisligi uchun javobgardir.

46. Ishchi organ:

Mazkur nizomga muvofiq xaridlar tartibini tashkil etishda davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari va ushbu Nizom talablariga rioya qilish;

eng yaxshi takliflarni tanlashda to'plangan hujjatlarni Xaridlar komissiyasiga o'z vaqtida taqdim etish;

xaridlar komissiyasiga taqdim etiladigan tijorat takliflari va hisobotlarining ishonchliligi;

xarid qilinadigan tovarlar, ishlar va xizmatlar sifatining tasdiqlangan texnik topshiriqlarga muvofiqligi;

komissiyalarning tegishli qarori qabul qilingunga qadar shartnomalar ijrochilari (yetkazib beruvchilari) bilan kelishuvlar va muzokaralar olib bormaslik;

xaridlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, qiyosiy jadvalga kiritilgan ma'lumotlarning ishonchliligi uchun shaxsan javobgardir.

47. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Xarid qilish tartib-taomillarini
o'tkazmasdan elektron shaklda
eng yaxshi takliflarni tanlab
olish yo'li bilan tovarlar,
xizmatlar va ishlarni 3,5 ming
bazaviy hisoblash miqdoridan
ortiq xarid qilish tartibi
to'g'risida Nizomga
1-ilova

Namuna

TASDIQLAYMAN:

(rahbar lavozimi)

(imzo)

(F.I.Sh.)

202__ -y. “__” _____

Xarid qilish uchun texnik topshiriq

(tovarlar, ishlar va xizmatlar nomlanishi)

“_____” ehtiyojlari uchun

(“Uzbekistan Airways” AJ bo‘linmasi nomlanishi)

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar ro'yxati	Tavsif
1.	Tovarlar, ishlar va xizmatlar nomlanishi	
2.	Xarid uchun asos	
3.	Umumiy ma'lumot	
4.	Tovar yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish muddatlari	
5.	Asosiy topshiriq	
6.	Buyurtmachi	

7.	Ijrochiga talab	
8.	To'lov shartlari, hisob-kitoblar va muddatlar tartibi	
9.	Sotib olinadigan tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmlari	
10.	Boshlang'ich summa (agar zarur bo'lsa yoki yagona yetkazib beruvchi bo'lsa)	
11.	Maxsus shartlar	

Ishlab chiqilgan:

(lavozim)

(imzo va F.I.Sh.)

Kelishilgan:

(lavozim)

(imzo va F.I.Sh.)

(lavozim)

(imzo va F.I.Sh.)



BUYRUQ | ПРИКАЗ

20 23 у. «11» 05 № 286

О совершенствовании закупочной деятельности и утверждении закупочных комиссий АО «Uzbekistan airways» в новом составе

В целях оптимизации и повышения эффективности закупочных процедур

П Р И К А З Ы В А Ю:

1. Утвердить обновленные составы закупочных комиссий для проведения закупок:
 - методом отбора наилучших предложений на сумму до 3,5 тыс. БРВ согласно приложению №1;
 - методом отбора наилучших предложений на сумму от 3,5 до 25 тыс. БРВ и методом тендера на сумму свыше 25 тыс. БРВ согласно приложению №2.
 - по прямым контрактам путем отбора наилучших предложений без проведения закупочных процедур в электронной форме на сумму свыше 3,5 тыс. БРВ согласно приложению №3
2. Установить, что действие данного приказа не распространяется на закупки, осуществляемые зарубежными представительствами АО «Uzbekistan Airways».
3. Определить Департамент закупок рабочим органом всех трех закупочных комиссий.
4. Утвердить порядок по оформлению заявки на закупку товаров/работ/услуг согласно приложению №4.
5. Утвердить Положение о порядке осуществления закупок товаров, услуг и работ путем отбора наилучших предложений без проведения закупочных процедур в электронной форме по прямым договорам на сумму свыше 3,5 тыс. БРВ согласно приложению №5.
